

TIL O‘RGANISHGA MOTIVATSIYA BERUVCHI OMILLAR

Ibodullayev Bekzod Olimjon o‘g‘li

Turon universiteti magistranti

ibodullayevbekzod@gmail.com

Annotatsiya: *Til o‘rganish jarayoni ko‘plab omillar ta’sirida amalga oshadi va ularning eng muhimlaridan biri motivatsiyadir. Motivatsiya o‘quvchining harakatlanishiga, harakatlanish davomiyligiga va natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada til o‘rganishga ijobiy ta’sir etuvchi motivatsion omillar tahlil qilinadi, ular ichki va tashqi motivatsiyaga bo‘linib o‘rganiladi. Ichki motivatsiya shaxsiy qiziqish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va shaxsiy maqsadlar bilan bog‘liq bo‘lsa, tashqi motivatsiya ijtimoiy talablar, iqtisodiy manfaatlar va ishdagi imkoniyatlar bilan bog‘liqdir. Maqolada ushbu omillarning o‘quv jarayoniga ta’siri ilmiy adabiyotlar tadqiqotlar asosida ko‘rib chiqiladi hamda ularning til o‘rganish samaradorligiga ta’siri baholanadi.*

Kalit so‘zlar: *til o‘rganish, ta’lim, motivatsiya, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, til kompetensiyasi*

Аннотация: *Процесс изучения языка осуществляется под воздействием множества факторов, и одним из самых важных является мотивация. Мотивация непосредственно влияет на стремление учащегося к обучению, его продолжительность и результаты. В данной статье анализируются мотивационные факторы, положительно влияющие на изучение языка, которые делятся на внутреннюю и внешнюю мотивацию. Внутренняя мотивация связана с личными интересами, саморазвитием и индивидуальными целями, в то время как внешняя мотивация обусловлена социальными требованиями, экономическими выгодами и карьерными возможностями. В статье рассматривается влияние этих факторов на образовательный процесс на основе научной литературы и оценивается их влияние на эффективность изучения языка.*

Ключевые слова: *изучение языка, образование, мотивация, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, языковая компетенция.*

Abstract: *The process of language learning is influenced by numerous factors, with motivation being one of the most significant. Motivation directly impacts a learner's drive, the duration of their efforts, and the outcomes they achieve. This article analyzes the motivational factors that positively influence language learning, categorizing them into intrinsic and extrinsic motivation. Intrinsic motivation is associated with personal interest, self-development, and individual goals, whereas extrinsic motivation is driven by social demands,*

economic benefits, and career opportunities. The article examines the impact of these factors on the learning process based on scientific literature and evaluates their effect on language learning efficiency.

Keywords: *language learning, education, motivation, intrinsic motivation, extrinsic motivation, language competence.*

Kirish

Til o‘rganish bugungi globallashtirilgan dunyoda muhim ahamiyat kasb etib, shaxsiy va professional taraqqiyotning ajralmas qismiga aylangan. Biroq, til o‘rganish jarayoni ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ularning eng asosiylaridan biri motivatsiyadir. Motivatsiya ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning faolligi, chidamliligi va natijalarga erishish darajasini belgilaydi. Kanadalik psixologlar Robert Gardner va Wallace Lambert (1972) tadqiqotlariga ko‘ra, motivatsiya ikki asosiy turga bo‘linadi: 1. Integrativ motivatsiya – tilni ichki istak bilan o‘rganish, o‘sha til madaniyatiga singishish. 2. Instrumental motivatsiya – tilni ma‘lum bir maqsad uchun o‘rganish, masalan, ish topish, akademik yutuqlarga erishish yoki xorijga chiqish. Bundan tashqari, amerikalik psixologlar Edward L. Deci va Richard M. Ryan (1985) motivatsiyani ichki va tashqi motivatsiya deb ajratgan: Ichki motivatsiya – shaxsiy qiziqish, bilim olishga bo‘lgan ishtiyoq. Tashqi motivatsiya –bu tashqi omillar, bosimlar natijasida yuzaga keladi (mukofotlar, bosim va majburiyatlar, yoki akademik talablar). Tadqiqotda til o‘rganishga motivatsiya beruvchi omillar tahlil qilinadi va ularning ta‘lim jarayonidagi o‘rni muhokama qilinadi.

Materiallar va metodlar

Ushbu maqola motivatsiyaga oid adabiyotlardan foydalangan holda va tadqiqotlar natijasida tayyorlandi. Tadqiqot usullari quyidagilardan iborat:

1. Adabiyot tahlili – motivatsiyaga tegishli va aynan til o‘rganish motivatsiyasiga oid kitoblar va internet ma‘lumotlari o‘rganildi.
2. So‘rovnoma va intervyu – til o‘rganayotgan talabalar va mutaxassislar bilan o‘tkazilgan suhbatlar natijalari tahlil qilindi.
3. Tahliliy usul – ichki va tashqi motivatsiya omillari ajratilib, ularning o‘quv jarayoniga ta’siri baholandi.

Tadqiqot davomida B2 va C1 darajadagi chet tilini o‘rganayotgan talabalardan so‘rovnoma olingan. Ularning til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasi, qiyinchiliklari va motivatsiyani oshirish usullari tahlil qilindi.

Muhokama va natijalar

Tadqiqot natijalari til o‘rganishga motivatsiya beruvchi omillarni quyidagi asosiy guruhlariga ajratish mumkinligini ko‘rsatdi:

1. *Ichki motivatsiya omillari*

Ichki motivatsiya, asosan, insonning shaxsiy istaklari va qiziqishlari bilan bog‘liq bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

O‘z-o‘zini rivojlantirish istagi – ko‘p tilli shaxs bo‘lish, intellektual salohiyatni oshirish.

Akademik va ilmiy qiziqish – lingvistika yoki tarjima sohasida ishlash istagi.

Madaniy qiziqish – yangi madaniyat va urf-odatlarni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoq.

O‘yin va ijodiy yondashuv – interaktiv o‘yinlar, ilovalar va badiiy adabiyotlar orqali til o‘rganish.

2. Tashqi motivatsiya omillari

Tashqi motivatsiya, asosan, ijtimoiy va iqtisodiy talablar bilan bog‘liq bo‘lib, quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

Ta‘lim va ish imkoniyatlari – xorijiy universitetlarga kirish, yaxshi ish topish va daromad qilish.

Ijtimoiy bosim va talablar – atrof-muhitning chet tilini o‘rganishni rag‘batlantirishi.

Rasmiy talablar va sertifikatlar – xalqaro imtihonlar (Goethe, IELTS, TOEFL) va ish bozoridagi ehtiyojlar.

3. Til o‘rganish motivatsiyasiga ta’sir etuvchi pedagogik omillar

O‘qitish metodlari – interaktiv va kommunikativ metodlar motivatsiyani oshiradi.

O‘qituvchi shaxsiyati – o‘qituvchining bilim darajasi, motivatsiyasi va pedagogik yondashuvi katta rol o‘ynaydi.

Texnologik vositalar – raqamli texnologiyalar, onlayn kurslar va sun’iy intellekt yordamida o‘qitish motivatsiyani oshiradi.

Tadqiqot natijalari

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, til o‘rganuvchilar orasida instrumental motivatsiya (65%) integrativ motivatsiyadan (35%) ustun ekanligi aniqlandi.

O‘qitish metodlari va texnologik vositalardan foydalanish o‘quvchilarning motivatsiyasini 40-45% ga oshirishi mumkin.

O‘z-o‘zini rag‘batlantirish strategiyalari motivatsiyani barqaror ushlab turishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa: Til o‘rganish motivatsiyasi o‘quvchining shaxsiy va ijtimoiy omillariga bog‘liq holda shakllanadi. Ichki motivatsiya bu qiziqish va maqsadlarga asoslangan bo‘lsa, tashqi motivatsiya esa ijtimoiy va iqtisodiy talablar bilan bog‘liq. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, eng samarali til o‘rganish jarayoni ichki va tashqi motivatsiyaning uyg‘unlashishi bilan amalga oshadi.

Kelgusida til o‘rganish motivatsiyasini oshirish uchun quyidagi tavsiyalar beriladi:

O‘quvchilarni rag‘batlantirish va ularga qiziqarli metodlarni taklif qilish.
Til o‘rganish jarayonida texnologiyalardan samarali foydalanish.
O‘qitish jarayonini interaktiv va muloqotga asoslangan usullarda olib borish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ivanov, P.I., Zufarov, M.E. Umumiy psixologiya. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008, 480 b.
2. Jalilov J.J. Chet tilini o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 2012, 432 b.
3. Umirov, B.M. Psixologiya. Toshkent: Voris-nashriyoti, 2012, 272 b.
4. www.kitobxon.com

RUS, O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARI FE’L ZAMONI SHAKLLAR TIZIMI: QIYOSIY TADQIQOT

Shahriyorova Shaxinabonu Shahzod qizi
Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti

Annotatsiya. *Ushbu maqola rus, o'zbek va ingliz tillarida fe'l zamon shakllar tizimini qiyosiy o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada har uchala tilning fe'l zamon shakllari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va tizimidagi farqlar tahlil qilinadi. Rus tilida zamonlar tizimi mukammal va keng tarqalgan bo'lib, unda to'rt asosiy zamon – o'tgan, hozirgi, kelasi va shartli zamon mavjud. O'zbek tilida ham o'ziga xos zamonlar tizimi mavjud bo'lsa-da, u rus tiliga nisbatan kamroq murakkabdir. Ingliz tilida esa o'ziga xos grammatik strukturalar, jumladan, vaqtni ifodalovchi fe'l shakllari mavjud bo'lib, ular ko'proq yordamchi fe'llar orqali ifodalanadi. Ushbu maqola har uchala tilning fe'l zamonlari tizimini solishtirish va ularning o'ziga xos jihatlarini ko'rib chiqishga intiladi.*

Kalit so'zlar: *rus tili, o'zbek tili, ingliz tili, fe'l zamonlari, qiyosiy tadqiqot, grammatik tizim, tilshunoslik.*

Fe'l zamon shakllari tizimi har bir tilning murakkab va muhim grammatik jihatlaridan biridir. Ular har qanday tilda vaqtni, davomiylikni, tartibni, o'tganlikni, hozirlilikni va kelajakni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Har bir tilda fe'l zamon shakllari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning shakllanishi va ishlatilishi tildagi semantik va sintaktik tuzilmalar bilan chambarchas bog'liqdir.